


**Mavzu: Rasm asosida gap tuzish**

Aa Mehnat insonni bezaydi,  
Quyosh – yerni.

mehnat



**1-mashq.** Maqollarni o'qing.  
Mazmunini izohlang.



Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,  
Odam – mehnati bilan.

Daryo suvini bahor toshirar,  
Odam qadrini mehnat oshirar.



Rasm asosida gap tuzishda atrofdagi manzara,  
undagi qahramonlar va ularning mashg'uloti,  
kayfiyatini diqqat bilan kuzatish lozim.



**2-mashq.** Rasmdagi tabiat manzarasi, qahramonlar  
va ularning mashg'uloti, kayfiyatini diqqat bilan  
kuzatib, gaplar tuzing.





**3-mashq.** Kim ko'p topadi? o'yini.

**Mehnatsevarlik** so'zidagi harflardan foydalanib, yangi so'zlar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Namuna:** mehnatsevarlik

Bog'imizda shirin meva pishdi.



**4-mashq.** Rasmdagi manzara, qahramonlar va ularning mashg'uloti, kayfiyatini diqqat bilan kuzatib, gaplar tuzing.



- Tuzgan gaplaringizdan bog'lanishli matn hosil qiling.
- Matnga sarlavha qo'ying.



**11-dars. 1-nazorat ishi**

**12-dars. Xatolar ustida ishlash**